



XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-114-2-36-K/25 Kogon tumani

Kogon tumani bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soliqlarini hisoblab chiqarishda qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilayotgan o'zgartirishlar hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining "Buxoro viloyati bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori loyihasiga asosan Kogon tumani bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soliqlarini hisoblab chiqarishda qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash maqsadida Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining 2025-yil 5- dekabrda "Buxoro viloyati bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori loyihasiga asosan Kogon tumani bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun miqdori 41 976 000 so'm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining miqdori 381 so'm belgilanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov)ning mahalla fuqarolar yig'inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soliqlarini hisoblab chiqarishda kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash yuzasidan takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini aniqlash uchun qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

-qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlarning 1 gektariga yuridik shaxslar bo'yicha 2026-yilda Kogon tumani uchun belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida 1- ilovaga;

-jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) 2026-yilda Kogon tumani uchun 1 kv.m. yerga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida 2- ilovaga;

-2026-yil Kogon tumani uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga;

-2026-yil Kogon tumani uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-03-017-2-36-K/24 — sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Tuman hokimligi ushbu qaror bilan ma'qullangan Kogon tumani bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soliqlarini hisoblab chiqarishda qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni ommaviy axborot vositalarida va tuman hokimligining rasmiy veb saytida e'lon qilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



**QAZOQOV
OTABEK
NODIROVICH**

Xalq deputatlari Kogon tumani Ken-
gashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-114-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo'yicha 2026- yilda Kogon tumani uchun mutlaq miqdorda belgilan-
gan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koef-
fitsiyentlar**

Hozirgi kunda mavjud mahallalar bo'yicha

T/r	Hududlar nomi	Mahalla nomi	2026-yil uchun		
			2026-yil Xalq deputatlari viloyat Ken-gashi tomonidan tasdiqlangan stavka (so'm)	Xalq deputatlari tuman (shahar) Ken-gashining qaroriga asosan qo'llanilgan koef-fitsiyent	2026-yil soliq stavkasi (so'm)
1	2	3	4	5	6
1	Kogon tumani	Geofizika MFY	41 976 000	1,09	45 753 840
2	Kogon tumani	Istikbol MFY	41 976 000	1,02	42 815 520
3	Kogon tumani	Kogon MFY	41 976 000	1,00	41 976 000
4	Kogon tumani	Niyoz xoji MFY	41 976 000	1,02	42 815 520
5	Kogon tumani	Nurafshon MFY	41 976 000	0,73	30 642 480
6	Kogon tumani	Sarayon MFY	41 976 000	1,02	42 815 520
7	Kogon tumani	Sorgun MFY	41 976 000	1,00	41 976 000
8	Kogon tumani	Beklar MFY	41 976 000	0,98	41 136 480
9	Kogon tumani	Suxor MFY	41 976 000	1,04	43 655 040
10	Kogon tumani	Choloki MFY	41 976 000	0,98	41 136 480
11	Kogon tumani	Hukumatobod MFY	41 976 000	0,89	37 358 640
12	Kogon tumani	Xuja Yakshaba MFY	41 976 000	1,02	42 815 520
13	Kogon tumani	O'zbekiston MFY	41 976 000	1,09	45 753 840
14	Kogon tumani	Urtachul MFY	41 976 000	0,72	30 222 720
15	Kogon tumani	Ubachuli MFY	41 976 000	1,02	42 815 520
16	Kogon tumani	Tunirok MFY	41 976 000	0,88	36 938 880
17	Kogon tumani	Taragqiyot MFY	41 976 000	1,00	41 976 000
18	Kogon tumani	Bahouddin Naksh-band MFY	41 976 000	1,12	47 013 120

19	Kogon tumani	Siyoz-poyon MFY	41 976 000	1,16	48 692 160
20	Kogon tumani	Mustakillik MFY	41 976 000	1,41	59 186 160
21	Kogon tumani	Navruz MFY	41 976 000	1,30	54 568 800
22	Kogon tumani	Yangixayot MFY	41 976 000	1,35	56 667 600
23	Kogon tumani	Tutkunda MFY	41 976 000	1,63	68 420 880

Xalq deputatlari Kogon tumani Ken-
gashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-114-2-36-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) 2026-yilda Kogon tumani uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

Hozirgi kunda mavjud mahallalar bo'yicha

T/r	Hududlar nomi	Mahalla nomi	2026-yil uchun		
			2026-yil Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka (so'm)	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qaroriga asosan qo'llanilgan koeffitsiyent	2026-yil soliq stavkasi (so'm)
1	2	3	4	5	6
1	Kogon tumani	Geofizika MFY	381	1,0 6	403,9
2	Kogon tumani	Istikbol MFY	381	1,0 3	392,4
3	Kogon tumani	Kogon MFY	381	1,0 3	392,4
4	Kogon tumani	Niyoz xoji MFY	381	1,0 6	403,9
5	Kogon tumani	Nurafshon MFY	381	0,7 1	270,5
6	Kogon tumani	Sarayon MFY	381	1,0 8	411,5
7	Kogon tumani	Sorgun MFY	381	1,0 1	384,8
8	Kogon tumani	Beklar MFY	381	0,8 5	323,9
9	Kogon tumani	Suxor MFY	381	1,0 6	403,9
10	Kogon tumani	Choloki MFY	381	1,0 6	403,9
11	Kogon tumani	Hukumatobod MFY	381	1,0 8	411,5
12	Kogon tumani	Xuja Yakshaba MFY	381	0,9 9	377,2
13	Kogon tumani	O'zbekiston MFY	381	1,0 6	403,9
14	Kogon tumani	Urtachul MFY	381	0,7 0	266,7
15	Kogon tumani	Ubachuli MFY	381	1,0 3	392,4

16	Kogon tumani	Tunirok MFY	381	0,9 9	377,2
17	Kogon tumani	Taraqqiyot MFY	381	1,1 1	422,9
18	Kogon tumani	Bahouddin Nakshband MFY	381	1,0 1	384,8
19	Kogon tumani	Siyoz-poyon MFY	381	0,9 7	369,6
20	Kogon tumani	Mustakillik MFY	381	0,9 0	342,9
21	Kogon tumani	Navruz MFY	381	0,9 5	362,0
22	Kogon tumani	Yangixayot MFY	381	0,9 9	377,2
23	Kogon tumani	Tutkunda MFY	381	1,0 1	384,8

Xalq deputatlari Kogon tumani Ken-
gashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-114-2-36-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**2026-yil Kogon tumani uchun suv resurslaridan foydalangan-
lik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan
soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar
miqdori**

T.R	Tuman va shaharlar nomi	Faoliyat turlari kesimida
-----	-------------------------------	------------------------------

1	Kogon t.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
		1,10	1,07	1,07

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-114-2-36-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil Kogon tumani uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub	Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub		
		Koeffit-siyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi
1	Kogon t.	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,00	21 400,0	1,12	35 952,0	1,15	19 625,9	1,20	5 931,6	1,20	6 420,0